

**FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRARISH
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI
VOLUME-2, ISSUE-8
INSULTDAN KEYINGI REABILITSIYADA FIZIOTERAPEVTIK
REABILITSIYA SAMARADORLIGI**

Saodatxon Ro'ziyeva Toxirjon qizi

Turon sanatoriyasi- vrach nevropatolog

saodatxomidova1998@gmail.com

Toshkent shahar Mirzo Ulug'bek tumani Shukur Burhonov ko'chasi 7 uy

+998914884633

Ilmiy rahbar: Yulduz Musayeva Alpisovna

Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti-Nevrologiya va tibbiy psixologiya kafedrası
professori d.m.n.

yulduz76m@gmail.com

+998 94 368 25 62

Tadqiqot maqsadi

Insultdan keyingi bemorlarda harakat faoliyati, mushak tonusi va neyropsixologik funksiyalarni tiklashda fizioterapevtik reabilitatsiya usullarining (elektroterapiya, massaj, terapevtik jismoniy mashqlar va refleksoterapiya) samaradorligini baholash hamda ularning kompleks qo'llanilishi orqali bemorlarning funksional mustaqilligini oshirish imkoniyatlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqot materiali va usullari

Tadqiqot 2023–2025-yillar davomida insultdan keyingi 40 nafar bemor (erkaklar — 22 nafar, ayollar — 18 nafar, o'rtacha yosh — 56 ± 8 yil) o'rtasida olib borildi. Bemorlar insultning turi va og'irlik darajasiga ko'ra guruhlariga ajratildi. Tadqiqotda ishtirok etganlarning barchasi reabilitatsiya markazida davolanish bosqichida kuzatildi. Fizioterapevtik reabilitatsiya dasturiga quyidagilar kiritildi: elektroforez, magnitoterapiya, terapevtik massaj, passiv va faol jismoniy mashqlar, refleksoterapiya hamda psixologik qo'llab-quvvatlash mashg'ulotlari. Har bir bemorga individual reabilitatsiya rejasi ishlab chiqildi. Natijalarni baholash uchun Fugl-Meyer Assessment (FMA), Barthel indeksi, va Modified Rankin Scale (mRS) kabi xalqaro reyting tizimlari asosida dastlabki va yakuniy holatlar solishtirildi. **Natijalar**

**FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRISH
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI
VOLUME-2, ISSUE-8**

Tadqiqot natijalariga ko'ra, fizioterapevtik reabilitatsiya usullarining kompleks qo'llanilishi bemorlarning funksional holatini sezilarli darajada yaxshilaganligi aniqlandi. Dastlabki bosqichda bemorlarning 70 %ida mushak tonusi pasaygan, 65 %ida esa qo'l va oyoq harakatlarida cheklanish kuzatilgan. Reabilitatsiya kursining yakunida bu ko'rsatkichlar mos ravishda 28 % va 30 % gacha kamaydi. Fugl-Meyer baholash shkalasi bo'yicha o'rtacha ball 34 ± 6 dan 61 ± 7 gacha oshdi, bu esa harakat faoliyatining tiklanishini ko'rsatadi.

Xulosa

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, fizioterapevtik reabilitatsiya usullari insultdan keyingi bemorlarda harakat faoliyatini, mushak tonusini va psixo-emotsional holatini tiklashda muhim ahamiyatga ega. Elektroterapiya, massaj, refleksoterapiya va terapevtik jismoniy mashqlarni kompleks qo'llash bemorlarning funksional mustaqilligini oshirib, ularning kundalik hayotga moslashuv jarayonini tezlashtiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'Sullivan, S. B., Schmitz, T. J., & Fulk, G. D. (2020). *Physical Rehabilitation*. 7th ed. F.A. Davis Company, Philadelphia.
2. Langhorne, P., Bernhardt, J., & Kwakkel, G. (2021). Stroke rehabilitation. *The Lancet*, 397(10274), 507–517.
3. Winstein, C. J., et al. (2019). Guidelines for Adult Stroke Rehabilitation and Recovery. *Stroke*, 50(12), e344–e418.
4. Kaur, G., & Sharma, R. (2022). Effectiveness of physiotherapy interventions in post-stroke rehabilitation: A systematic review. *Journal of Neurological Sciences*, 434, 120–128.